

QO'QON XONLIGIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI.

Farxodjonov Farruh

NamDU tarix yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'qon xonligida mavjud bo'lgan ta'lim tizimi va ularda olib borilgan fanlar va ularning ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek xonlikda mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasi ya'ni madrasalar soni, undan tashqari maktab va masjidlar soni shaharlar kesimida keltirilgan

Kalit so'zlar: ta'lim, madrasa, masjid, maktab, islom, o'quvchi, shahar, Qo'qon

Аннотация: В данной статье представлена информация о системе образования в Коганском ханстве, преподаваемых в них предметах и их значении. В разделе городов указано количество высших учебных заведений медресе, а также количество школ и мечетей в ханстве.

Ключевые слова: образование, медресе, мечеть, школа, ислам, студент, город, Коканд.

Annotation: This article provides information about the education system in the Kokand Khanate and the subjects taught in them and their importance. The number of high educational institutions, madrasahs, as well as the number of schools and mosques in the khanate, is given in the section of cities.

Key words: education, madrasa, mosque, school, Islam, student, city, Kokand.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida xalq ta'limi, fan va madaniyati haqida gap borganda shu narsani alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini asosiy o'rinni egallagan. Va ta'lim tizimida barcha fanlar islom diniga asoslangan holda o'tilgan. Qo'qon xonligi davrida Qo'qon shahrining o'zida bir necha o'quv yurtlari; madrasalar, maktabkar, va korixonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va hususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rdasida xonzoda va zodogonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan "Ansob as salotin va tavorixi havoqin" nomli asarda yozilishicha, "Musulmonqul mingboshining buyrug'i bilan yosh Hudoyorxon va qipchoqlar bolalarini

o'qitish uchun o'rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mullo Sodiq tayinlangan".¹

Maktablarda asosan o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilgan. Korixonalarda esa ko'zi ojiz o'quvchilar o'qitilgan, Qur'on, doston va sheru g'azallar yodlaganlar. Maktablarda qizlar alohida o'g'illar alohida o'qitilgan. Mashhur shoiralardan biri Dilshod Qo'qonda qizlar uchun o'z maktabini ochgan. Pedagogik faoliyati haqida, " Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli va istedodli shoiralari edi. Ellik bir yil davomida yilliga o'rtacha 20 ta 30 ta o'quvchiga ustozlik qildim. 890 ta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi shariyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli va dono odami edi" degan edi.²

Tabiiyki poytaxt Qo'qon shahrida boshqa hududlarga nisbatan maktab va madrasalar ko'p edi. Bu esa poytaxtliklarning ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qib yozishga usta bo'lganlariga dalolat beradi. Qo'qonda xususiy maktablar ham bo'lgan, o'qituvchilar ushbu maktablarni o'z xonadonlarida ochishgan. Xususiy maktablardan tashqari barcha maktablar vaqflardan tushgan daromadlar hisobidan o'qitilgan. Bunday maktablar asosan masjidlarda ochilgan.³

1841 yil Qo'qon shahrida ikkita bosh mudarris Eshon Mavloniy va Mahzumiy Buxoriy boshqargan xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan. Xonliklarning boshqa shaharlaridagi madrasalar Qo'qonikidek katta va salobatli emasdi. O'qishni bitirgan ayrim talabalar bilimlarini takomillashtirish uchun Buxoro va Samarqand madrasalariga borib o'qishgan.

Maktab domlalarining hammasida o'ziga yarasha o'qitish uslubi bo'lgan. Ulardan ayrimlari oquvchini o'qitishda ularning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratishgan. Masalan yoshi kichik o'quvchilarni husixatga va og'zaki hisobga o'rgatgan. Katta yoshdagi o'quvchilarni esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab va turkiy tillarda yozilgan o'nta hayotiy kitoblarni o'qishni o'rgatar edi.

Madarsalar asosan uch o'quv bosqichlaridan; boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) iborat bo'lgan. Barcha bosqichlar davomida arab, fors va turk tillar mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish uslublari qiroat, tavsif), fikh(shariat qonulari), handasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jug'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Farriddun attorning "Mantiq ut tayr", Xofiz

¹ Н. Bobobekov. Qo'qon tarixi, Fan, Toshkent-1996 144-bet

² А.Мухторов. Дилшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX - нач XX вв 301-бет

³ ЦГИЛ Россия, См-Петербург ф 954 оп 1, ед. хр. 134, 9-10 бет

Sheroziy devoni, Mirzoabduqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning “Chor devon” i, Fuzuliy g’azaliyoti hamda Sharqda milliy ta’lim sohasida darslik va qullanma sifatida foydalanib kelinayotgan “Maslak ul-muttaqin”, “Avvali ilm”, “Mu’zi vazanjoniy”, “Avomil” , “Harakat”, “Qofiya”, “Sharqi muloyi Jomiy”, Risolayi Shamsiya” kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo’lganlar. Madrsalrda ta’lim jarayonida badiiy asrlar keng o’rin olganligi, dunyo qarash kengayishida va tafakkur shakllanishtrish borasida badiiy asrlarga alohida etibor qaratilganligini ko’rsatadi. Qo’qon xonligida turli mansablarda xizmat qilgan Muhiddinxoja 1861 yili Qo’qondagi madrasalardan birida o’qigan. U N. Likoshinga so’zlab berganligiga qaraganda, mudarisslar talabalarni madarasadan tashqariga chiqib maishat qilganlarni yomon ko’rganlar. Talabalar vaqtlarini ertalabdan kechgacha domlarni darslarini eshitib, kitob o’qish va xattotlik mashqlari bilan o’tkazardilar.

Payshanba kunlari domlalar uylariga ketganlar, talabalar esa bo’sh vaqtlarini o’yinlar bilan o’tkazganlar. Juma kunlari darslar bo’lmagan. Talabalar ba’zan bozorga borib maddohlarning hikoya va diniy riboyatlarini eshitar edilar. Talabalarning ko’pchiligi esa Qo’qon xoni boradigan va olimlar yig’iladigan Jome’ masjidiga borishni orzu qilganlar. Bu yerda Juma nomozidan keyin olimlar bilan birgalikda Qur’on va shariat haqida munozaralar o’tkazilgan. Bunda ko’plab mashhur din ahllari, olimlar , yosh mutaxassislar ham xon oldida o’zlarining bilimlarini, aql va harakatlarini ko’rsatishga intilganlar. Istedodi Borlar albatta, xon nazariga tushgan va keyinchalik qobilyatlariga muvofiq mansabga ega bo’lganlar.⁴

A.L. Kun ham Farg’ona vodiysida xalq ta’limi masalasiga katta e’tibor bergan. Masalan u ba’zi shaharlar bo’yicha (1875-1876 yillarga oid) statistik ma’lumotlar to’plagan.⁵

	Shaharlar nomi	Masjidlar soni	Maktablar soni	Madrasalar soni
1	Qo’qon	300	120	40
2	Marg’ilon	300	80	10
3	Andijon	200	60	6
4	Namangan	250	100	5
5	O’zgan	70	20	4
6	Baliqchi	50	10	3

Qo’qon o’lkashunoslik muzeyida Farg’ona viloyatining 1898 yilgi obzorida madrasa, masjid va korixonalar haqida diqattga sozovor ma’lumotlar bor. Qo’qon xonligidagi madrasalar va ulardagi talabalar soni.⁶

⁴ H. Bobobekov. Qo’qon tarixi, Fan, Toshkent-1996 144-bet

⁵ А.Л Кун Некоторые сведения о Ферганской долине, 161-170 бетлар

Viloyatlar	Madrasalar soni	Talabalar soni
Marg'ilon	57	838
Qo'qon	45	6929
Namangan	40	1324
Andijon	30	996
O'sh	10	304
Jami:	182	10391

Qo'qon xonligidagi masjidlar soni:⁷

Marg'ilon Shahri	243 ta
Marg'ilon uyezdida	1494 ta
Qo'qon shahri	247 ta
Qo'qon uyezdida	1590 ta
Namangan shahrida	337 ta
Chust shahrida	84 ta
Namangan uyezdida	904 ta
Andijon shahrida	213 ta
Andijon uyezdida	709 ta
O'sh shahrida	111 ta
O'sh uyezdida	221 ta
Jami:	6154 ta

Qo'qon xonligida maktabxonalar va o'quvchilar soni:⁸

Viloyatlar	Maktabxona	O'quvchi
Marg'ilon	433	7340
Andijon	428	6756
Namangan	371	7121
Qo'qon	391	4210
O'sh	176	2851
Jami:	1709	28288

Qo'qon xonligida Korixonalar va o'quvchilar soni:⁹

Viloyatlar	Korixona	O'quvchi
Qo'qon	106	604
Namangan	50	305
Andijon	44	320
Marg'ilon	21	395
O'sh	14	76
Jami:	235	1699

Marg'ilon, Qo'qon, Andijon viloyatlarida 6 ta yahudiylar maktabi bo'lib ularda 220 o'quvchi bor edi.

⁶ Н. Лыкошин Дорогой гость, См.Средняя Азия, Альманах, Ташкент 1895, 201-202 бетлар

⁷ Н. Лыкошин Дорогой гость, См.Средняя Азия, Альманах, Ташкент 1895, 11 бет

⁸ Н. Лыкошин Дорогой гость, См.Средняя Азия, Альманах, Ташкент 1895, 116 бет

⁹ Н. Лыкошин Дорогой гость, См.Средняя Азия, Альманах, Ташкент 1895, 201-202 бетлар

Xulosa qilib aytganda XV- asrdan XX asrgacha O'rta Osiyo ta'lim dasturlari islom diniga asoslangan bo'lgan. Qur'on ilmi (o'qish uslublari qiroat, tavsif), fikh(shariat qonulari), handasa, ilmi nujum o'qitilgan. Undan tashqari madrasalarda , axloq, falsafa,mantiq, adabiyot, jug'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Maktab o'quv dasturi esa asosan domlaning o'z uslibiga bog'liq bo'lgan. Ulardan ayrimlari oquvchini o'qitishda ularning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratishgan. Masalan yoshi kichik o'quvchilarni husnixatga va og'zaki hisobga o'rgatgan. Katta yoshdagi o'quvchilarni esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab va turkiy tillarda yozilgan o'nta hayotiy kitoblarni o'qishni o'rgatar edi. A.L. Kunning 1875-1876 yillarga oid statistikalar ko'rsatdiki Qo'qon xonligining yirik shaharlari Qo'qon va Marg'ilon barcha madrasa, maktab va korixonalar soni, va ularning o'quvchi-talabalari soni bo'yicha yaqqol yetakchilik qilganligi, ushbu hududlarda savodli va istedodli insonlar ko'p bo'lganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н. Bobobekov. Qo'qon tarixi, Fan, Toshkent-1996
2. А.Мухторов. Дилшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX - нач XX вв
- 3.ЦГИЛ Россия, См-Петербург ф 954 оп 1, ед. хр. 134,
4. А.Л Кун Некоторые сведения о Ферганской долине, 161-170 бетлар
- 5.Н. Лыкошин Дорогой гость, См.Средняя Азия, Альманах, Ташкент 1895, 201-202 бетлар